

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2514,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 165,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1365,6 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2514,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,7 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo (27,9 %) va transport (25,5 %) xizmatlari tashkil etadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



**2019-yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining
taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida oldingi yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (168,9 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (129,8 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (70,9 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2514,2	114,7
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	142,4	109,8
moliyaviy xizmatlar	419,3	165,7
transport xizmatlari	641,8	103,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	612,3	101,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	62,5	113,2
savdo xizmatlari	702,0	107,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	77,7	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	101,5	133,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,2	107,6
ijara xizmatlari	54,8	103,6
kompyuterlar va ma'iший tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	91,0	106,4
shaxsiy xizmatlar	78,1	100,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,6	104,2
boshqa xizmatlar	72,3	133,0

**2019 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	2514,2	114,7
Urganch shahri	1286,2	120,6
Xiva shahri	76,7	118,6
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	105,7	107,3
Gurlan	112,3	107,0
Qo'shk o'pir	104,8	109,0
Urganch	206,1	110,2
Hazorasp	153,1	108,7
Xonqa	119,1	111,5
Xiva	79,6	105,6
Shovot	99,4	105,9
Yangiariq	91,9	109,2
Yangibozor	79,1	108,4

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**




2019-yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (165,7%), ta'lif sohasidagi xizmatlar (133,5 %), boshqa xizmatlar (133,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (113,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Tumanlar o'rtaida Urganch shahri (1286,2 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 120,6 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Xiva shahri (76,2 mlrd.so'm), Yangibozor tumanida (79,1 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (79,6 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (120,6 %) va Xiva shahri (118,6 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



**2019 - yil yanvar - iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %.**




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar - iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 702,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 129,8 mlrd. so'mga oshdi.

2019 - yil yanvar - iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 21,7 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 6,9 % ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 419,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 165,7 % ni tashkil etdi.


2019 - yil yanvar - iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyo hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,5 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 76,3 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,7 % ga to'g'ri keladi.

**2019 - yil yanvar - iyun oylarida yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %**




2018 - yil yanvar - iyun oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiat, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 113,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar – iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 101,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.


Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 42,0 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-iyun oylarida 1365,6 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 258,6 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 112,8 % qayd etildi.

**2019 - yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, (ming so'm)**




Tumanlar o'ttasida Urganch shahri (9051,5 ming so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 119,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Xiva tumanida (557,6 ming so'm), Shovot tumanlarida (595,8 ming so'm) va Qo'shko'pir tumanida (620,1 ming so'm) kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (119,4 %) va Xiva shahri (116,8 %) da qayd etildi.

2019 - yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: U.Bardiyev